



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA AUDIT SIFATINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA MUAMMOLARI

Xotamov Alisher Xotamjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Audit kafedrası dotsenti, PhD.

Email: alisher_xotamov@mail.ru.

Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Buxgalteriya hisobi" fakulteti

BHA-70/23 guruh talabasi

Email: bonubotirjonova164@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola audit sifatini oshirishning zamonaviy yo'nalishlari va amaliy muammolarini Auditorlikning Xalqaro Standartlari (AXS) kontekstida tahlil qiladi. Maqolada riskga asoslangan audit yondashuvi, raqamli texnologiyalarni qo'llash, sifat nazorati va hujjatlashtirish, etik tamoyillarga rioya qilish hamda mustaqillikni saqlash kabi auditorlik jarayonini takomillashtiruvchi yo'nalishlar yoritiladi. Shu bilan birga, maqolada O'zbekistonda AXS talablarini tatbiq etishda duch kelinadigan muammolar, jumladan malaka yetishmovchiligi, ichki nazorat tizimi samaradorligining pastligi va texnologiyalardan to'liq foydalanilmasligi muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Audit, Auditning xalqaro standartlari (AXS), audit sifati, risklarni baholash, etik tamoyillar, mustaqillik, moliyaviy hisobotlar*

MODERN TRENDS AND PROBLEMS OF IMPROVING AUDIT QUALITY BASED ON INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS

Khotamov Alisher Khotamjon oglu

*Tashkent State University of Economics, Associate Professor of the
Audit Department, PhD.*

Email: alisher_xotamov@mail.ru

Botirjonova Bonu Bakhtiyor qizi

Tashkent State University of Economics, Faculty of "Accounting"

Student of group BHA-70/23

Email: bonubotirjonova164@gmail.com

Annotation. *This article analyzes modern trends and practical problems of improving audit quality in the context of International Standards on Auditing (ISA). The article covers areas that improve the audit process, such as a risk-based audit approach, the use of digital technologies, quality control and documentation, compliance with ethical principles, and maintaining independence. At the same time, the article discusses the problems encountered*



in the implementation of ISA requirements in Uzbekistan, including a lack of skills, low efficiency of the internal control system, and underutilization of technologies.

Keywords: *Audit, International Standards on Auditing (ISA), audit quality, risk assessment, ethical principles, independence, financial statements*

Kirish.

Bugungi kunda korxona va tashkilotlar faoliyatida auditning roli tobora ortib bormoqda. Auditorlik faoliyati nafaqat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash, balki korporativ boshqaruv tizimini mustahkamlash va investorlar ishonchini oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Shu munosabat bilan, audit sifatini ta'minlash va uning samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida qaraladi. Audit sifatini oshirishning xalqaro tajribasi, xususan Auditning Xalqaro standartlari (AXS) qo'llanilishi, auditorlik jarayonining shaffofligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ham audit tizimi AXS talablari bilan uyg'unlashtirilmoqda, biroq amaliyotda bir qator muammolar uchramoqda. Jumladan, audit jarayonining formal xarakteri, sifat nazorati tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, auditorlarning kasbiy malaka darajasidagi tafovutlar va riskga asoslangan yondashuvning to'liq qo'llanilmasligi ushbu tizim samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish jarayonida o'rganish ob'ektini tanlash, dastlabki farazlar, ma'lumot to'plash usullar, ma'lumotlarni tahlil qilish, sifatli tahlil, miqdoriy tahlil, mavjud nazariyalarni tahlil qilish, asosiy faoliyat turlarini aniqlash, har bir bosqichda qiymatni baholash, qiyosiy tahlil, aktivlarni baholash modellari kabi usulardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Moliyaviy hisobotlar xususida auditorlik fikri moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarida moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiga muvofiq taqdim etilgani to'g'risidagi masalaga tegishli bo'ladi. Bunday fikr barcha moliyaviy hisobotlar auditlari uchun umumiy hisoblanadi. Shu sababli auditorlik fikri, masalan, tadbirkorlik subyektining bo'lgusi yashovchanligini ham, tadbirkorlik subyekt rahbariyati tomonidan tadbirkorlik subyektining ishlarini yuritishning samaradorligi yoki natijadorligini ham kafolatlamaydi. Biroq, ayrim yurisdiksiyalarda tegishli qonun hujjatlari yoki me'yoriy hujjatlar auditorlar boshqa masalalar bo'yicha, xususan, ichki nazorat tizimining samaradorligi yoki tadbirkorlik subyekt rahbariyati ayrim hisoboti va moliyaviy hisobotlarning o'zaro muvofiqligi masalalari bo'yicha fikr taqdim etishlarini talab qilishi mumkin.⁵⁵

Audit sifatini oshirish masalasi aynan shu nuqtada dolzarb ahamiyat kasb etadi. AXS 200 standarti auditorning umumiy maqsadlarini belgilaydi va moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikr berishda sifat tamoyillarini ta'minlashni ko'zda tutadi. Matndagi holat shuni ko'rsatadiki, auditor moliyaviy hisobotlarning barcha muhim jihatlarida asosga muvofiq taqdim

⁵⁵ Auditning Xalqaro Standarti 200 (AXS) - "Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditni auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish"





etilganligini tekshirish bilan cheklanadi, biroq tadbirkorlik subyekting yashovchanligi yoki rahbariyat ish samaradorligini kafolatlamaydi. Bu esa audit sifatini oshirish uchun asosiy nazariy tamoyillarni belgilaydi. Biroq amaliyotda, ayrim joylarda auditorlardan qo'shimcha masalalar bo'yicha fikr bildirish talab qilinadi. Masalan, ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash yoki moliyaviy hisobotlarning o'zaro muvofiqligini tekshirish kabi ishlar. Bu holatlar O'zbekistonda ham uchrab turadigan audit sifatini oshirish muammolari bilan bog'liqdir.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish qo'llaniladigan asosining talablari moliyaviy hisobotlarning shakli va mazmunini belgilaydi. Garchi asos barcha operatsiyalar yoki hodisalar hisobini qanday yuritish yoki ularni ochib berish zarurligini ko'rsatmasligi mumkin bo'lsa-da, u odatda asos talablari zahirida yotuvchi konseptsiya bilan mos keladigan hisob siyosatini ishlab chiqish va qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan ancha keng prinsiplarni o'zida mujassamlashtiradi.⁵⁶

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda sifatni oshirish auditorlik faoliyatining eng muhim jihatlaridan biridir. Bu nuqtada AXS 200 va boshqa AXS standartlari auditorning asosiy vazifalarini belgilaydi hamda moliyaviy hisobotlarning to'g'ri va ishonchli shaklda tayyorlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosining talablaridagi prinsiplarga rioya qilish auditorlarga hisob siyosatini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishda yo'l-yo'riq beradi. Shu bilan birga, bu prinsiplarga amal qilinishi auditorlik dalillari sifatini oshirishga va risklarni samarali baholashga imkon yaratadi. Amaliyotda, agar hisob siyosati va moliyaviy hisobot shakli AXS standartlariga mos ravishda ishlab chiqilmasa, audit sifati pasayadi, hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligi tahdid ostida qoladi. Shu sababli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish asosining talablarini to'liq amalga oshirish, auditorlik jarayonining sifatini oshirish va AXS talablari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Auditorning maqsadi moliyaviy hisobot darajasida va taqdimnomalar darajasida firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlarni tadbirkorlik subyekti va uning muhitini, shu jumladan tadbirkorlik subyekti ichki nazorat tizimini bilish asosida aniqlash va baholash, shu yo'l bilan baholangan muhim buzib ko'rsatishlar risklariga nisbatan javob harakatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asosni ta'minlashdan iborat.⁵⁷

Audit standartlarining, xususan, AXS 315 standarti auditorlik sifatini oshirishda markaziy o'rin tutadi. Ushbu standart auditorlarga moliyaviy hisobotlar va taqdimnomalar darajasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muhim buzib ko'rsatish risklarini aniqlash va baholash bo'yicha yo'l-yo'riq beradi.

⁵⁶ Auditning Xalqaro Standarti 200 (AXS) - "Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditni auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish"

⁵⁷ Auditning xalqaro standarti 315 (AXS) - "Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik subyekti va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholash"





Auditor tadbirkorlik subyekti va uning ichki muhitini, shu jumladan ichki nazorat tizimini chuqur bilishi kerak. Bu bilimlar asosida auditor risklarni aniqlab, baholaydi va har bir xavfga nisbatan javob choralari ishlab chiqadi. Shunday qilib, AXS 315 standart riskga asoslangan yondashuvni ta'minlaydi va audit jarayonini sifatli va samarali qiladi. Amaliyotda, agar auditor bu standart talablariga to'liq rioya qilmasa, audit sifati pasayadi, moliyaviy hisobotlar ishonchliligi tahdid ostida qoladi. Shu sababli, AXS 315 standartini amaliyotga tatbiq qilish audit sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi va auditorlik jarayonining shaffofligi, ishonchliligi va moliyaviy hisobotlarning haqqoniy taqdim etilishini ta'minlaydi.

Auditorning maqsadi auditni shunday rejalashtirishdan iboratki, u samarali bajarilsin.⁵⁸

Auditning sifatini oshirishda esa 300 standart muhim o'rin tutadi. Ushbu standart auditorlarga moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish va strategiyani belgilash bo'yicha yo'l-yo'riq beradi.

Audit umumiy strategiyasini hujjatlashtirish auditni tegishli ravishda rejalashtirish va muhim masalalar to'g'risida kelishuv jamoasini xabardor qilish uchun zarur bo'lgan ahamiyatli qarorlarni qayd etishni o'zida ifodalaydi. Masalan, auditor audit umumiy strategiyasining qisqacha tavsifini, o'tkaziladigan auditning umumiy ko'lami, muddatlari va o'tkazilishi xususidagi eng muhim qarorlarni o'z ichiga olgan memosh ko'rinishida tayyorlashi mumkin.⁵⁹

Audit strategiyasini hujjatlashtirish auditorga muhim qarorlarni aniq belgilash imkonini beradi: auditning umumiy ko'lami, muddati, muhim masalalar va jamoaning xabardorligi. Bu esa audit jarayonini samarali, tizimli va sifatli bajarishga xizmat qiladi. Amaliyotda, agar audit rejalashtirilmagan yoki standartlarga muvofiq hujjatlashtirilmagan bo'lsa, audit sifati pasayadi, muhim risklar e'tibordan chetda qoladi va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi tahdid ostida qoladi. Shu sababli, AXS 300 talablari asosida auditni rejalashtirish audit sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi va auditorlik jarayonining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Auditning etik tamoyillari va me'yorlariga rioya qilish auditorlar va auditorlik tashkilotlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun asos hisoblanadi. Halollik, mustaqillik, maxfiylik va professional xulq-atvor me'yorlariga amal qilish orqali auditorlar nafaqat mijozlar, balki butun jamiyat oldidagi mas'uliyatini o'z vaqtida bajaradi. Shu sababli, etik tamoyillarni amaliyotda qo'llash va doimiy ravishda rivojlantirish juda muhimdir.⁶⁰

Auditning sifatini oshirishda etik tamoyillarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Auditorlar AXS 200 va boshqa AXS standartlarining talablariga amal qilish bilan birga, halollik, mustaqillik, maxfiylik va professional xulq-atvorni doimo saqlashi kerak. Amaliyotda etik tamoyillarning buzilishi audit sifati va moliyaviy hisobotlarning

⁵⁸ Auditning xalqaro standarti 300 (AXS) – “Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish”

⁵⁹ Auditning xalqaro standarti 300 (AXS) – “Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish”

⁶⁰ Zaripova S., Nabiyev U., Ubaydullayev O. (2022). Auditning etikasi va standartlari. *Journal of Marketing, Business and Management (JMBM)*



ishonchliligiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli auditorlar nafaqat moliyaviy ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash, balki mijozlar va jamiyat oldidagi mas'uliyatini bajarishda etik me'yorlarga amal qilishi lozim. Etik prinsiplar va AXS talablari uyg'unligi auditorlik jarayonini shaffof, ishonchli va sifatli qiladi, auditning professional darajasini oshiradi hamda investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlaydi.

Auditor taxminlarga asoslanib fikr bildirishdan xoli bo'lishi va o'zining obro'sini tushiradigan faktlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Auditorlik tashkiloti mustaqilligiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, auditorlik xizmatlari ko'rsatishni rad etishi kerak.⁶¹

Auditorlik qonunlariga muvofiq, auditorlar moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikr bildirishda taxminlarga asoslanmasligi va shaxsiy yoki tashqi omillar tufayli o'z obro'-e'tiborini tushiradigan faktlarga yo'l qo'ymasligi lozim. Bu tamoyil nafaqat O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, balki AXS 200 va 220 standartlarida ham mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, auditorlik sifatini ta'minlashning asosiy kafolatidir.

Shuningdek, agar auditorlik tashkiloti yoki auditor mustaqillikka monelik qiluvchi holatlarni aniqlasa, qonunga muvofiq u xizmatni ko'rsatishni rad etishi shart. Bu qaror auditorning professional obro'sini saqlashga xizmat qiladi va audit sifati hamda moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlaydi. Amaliyotda, auditor mustaqillikni buzuvchi omillardan xoli bo'lgan holda, AXS 315, AXS 330 va AXS 700 standartlari asosida risklarni baholash, javob choralari ishlab chiqish va yakuniy xulosani shakllantirish orqali audit sifatini oshiradi. Natijada, auditorning mustaqil va obro'li faoliyati moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi, auditorlik jarayonini xalqaro standartlarga mos qiladi va mijozlar hamda jamiyat oldidagi ishonchni mustahkamlaydi.

AXS 700 da "Moliyaviy hisobotlar"ga havola "umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami, shu jumladan ilova qilinayotgan izohlar"ni anglatadi. Ilova qilinadigan izohlarda, qoidalar tariqasida, hisob siyosatining asosiy qoidalari va boshqa sharhlovchi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiy talablarida moliyaviy hisobotlar shakli va mazmuni, hamda moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami tarkibiga nima kirishi lozimligi ifodalanadi.⁶²

Demak, moliyaviy hisobotlar bo'yicha auditorning xulosasini shakllantirish va hisoboti (fikri)ni berishda asosiy qo'llanma hisoblanadi. Standart "moliyaviy hisobotlar" atamasini umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan, to'liq to'plam sifatida belgilaydi va u asosiy hisobotlar bilan bir qatorda ilova qilinadigan izohlarni ham o'z ichiga oladi. Ilovadagi izohlar hisob siyosatining asosiy qoidalari, sharhlovchi ma'lumotlar va moliyaviy hisobotni to'liq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Shu orqali auditor moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va to'liqligiga oid xulosani shakllantiradi. Moliyaviy hisobotlarning shakli, mazmuni va tarkibi

⁶¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.02.2021 yildagi O'RQ-677-son "Auditorlik faoliyati to'g'risida"

⁶² Auditning xalqaro standarti (700) – "Moliyaviy hisobotlar to'g'risida fikr hosil qilish va hisobot (xulosa) berish"





AXS 700 tomonidan aniq belgilanganligi sababli, auditorlar xulosa chiqarishda bir xil asosga ega bo'lib, hisobotning foydalanuvchilar uchun tushunarli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa audit sifatini oshirish, shaffoflik va foydalanuvchilarning moliyaviy qarorlar qabul qilishida ishonchni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Auditning xalqaro standartlari (AXS) asosida audit sifatini oshirish zamonaviy auditorlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ishda riskga asoslangan yondashuv, ichki nazorat tizimining samaradorligi, etik tamoyillarga rioya qilish va mustaqillikni saqlash auditorlik sifatini ta'minlashning asosiy omillari sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, texnologiyalarni tatbiq etish va malaka oshirish orqali auditorlik jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

O'zbekiston sharoitida AXS talablarini tatbiq etishda duch kelinadigan muammolar — malaka yetishmovchiligi, ichki nazorat tizimining past samaradorligi, texnologiyalardan to'liq foydalanilmasligi va etik tamoyillarni amalda to'liq ta'minlay olmaslik — auditorlik sifatini oshirishga to'sqinlik qiladi.

Shu sababli, audit sifatini oshirish uchun zamonaviy yo'nalishlarni joriy etish, etik va professional me'yorlarga qat'iy rioya qilish, malakali kadrlar tayyorlash va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash muhim hisoblanadi. Natijada, auditorlik jarayoni shaffof, ishonchli va xalqaro standartlarga mos bo'ladi, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi ta'minlanadi va auditorlarning professional obro'si mustahkamlanadi.

Foydangan adabiyotlar

1. Zaripova S., Nabiyeu U., Ubaydullayev O. (2022). Auditning etikasi va standartlari. *Journal of Marketing, Business and Management (JMBM)*
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.02.2021 yildagi O'RQ-677-son "Auditorlik faoliyati to'g'risida"
3. Auditning xalqaro standarti 315 (AXS) – "Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik subyektini va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholash"
4. Auditning xalqaro standarti 300 (AXS) – "Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish"
5. Auditning Xalqaro Standarti 200 (AXS) - "Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditni auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish"
6. Auditning xalqaro standarti (700) – "Moliyaviy hisobotlar to'g'risida fikr hosil qilish va hisobot (xulosa) berish"
7. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb sayti.